

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA - PSIXOLOGIYA FAKUL'TETI
MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI
308 GURUH TALABASI

RAHMONOVA DILXUMORning

O'ZGA TILGA O'RGATISH METODIKASI FANIDAN

MAVZU: MASHG'ULOT-ASOSIY SHAKLI UNING ASOSIY
MAQSADI VA OLIB BORISH TALABLARI

MUSTAQIL ISH
MUSTAQIL ISH

TEKSHIRDI: M.USMONOVA

JIZZAX- 2014

**MAVZU: MASHG'ULOT-ASOSIY SHAKLI UNING ASOSIY
MAQSADI VA OLIB BORISH TALABLARI**

R E J A:

1. MASHG'ULOT-MAKTABGACHA TA'LIMDA NUTQ
O'STIRISHNING ASOSIY SHAKLI.
2. NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARI. ULARNING
TURLARI, QURILISHI.
3. MASHG'ULOTGA QO'YILGAN TA'LIMIY VA DIDAKTIK
TALABLAR.

1. MASHG'ULOT-MAKTABGACHA TA'LIMDA NUTQ

O'STIRISHNING ASOSIY SHAKLI.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 1996 yil yakunlariga bag'ishlangan majlisdagi "Isloxotlar izchilligi- inson manfaatlari omili " mavzusidagi nutqida: "Biz o'z iste'dodli, fidoyi bolalarimizga, farzandlarimizga bilim va kasb chuqqilarini zabt etishi uchun qanot berishimiz kerak,"- deb ta'kidladi.

Ko'rinib turibdiki, Respublikamizda amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Barkamol avlodni, komil insonni tarbiyalashga xizmat qilmokda, bu esa pedagog, mutaxassis kadrlar tayyorlash sifatiga aloxida talab qo'ydi, ya'ni har bir mutaxassis yetuk, "raqobatbardosh" bilim va malakaga ega bo'lgan , ma'naviy barkamol inson bo'lib, ta'limning barcha shakllarini eng qulay usullar va yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etishni uddalay olishi lozim.

Shuni ta'kidlash lozimki,ta'lim - tarbiyadan ko'zlangan maqsad-ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatlarini, qiziqishlarini, ichki bilish xissi-motivatsiya kuchini uyg'otish, ularda o'zini o'zi boshqarish, mustaqil fikrlash, aniq maqsad sari intilishlarini shakllantirish imkoniyatini yaratishdan iboratdir.

Bunga erishish uchun esa Prezidentimiz aytganlaridek, "Yoshlarni qay usulda o'qitish, ularni tarbiyalash, mustaqil mamlakatning yetuk mutaxassisi

bulishiga qayg'urish har bir insonning asosiy vazifasidir" degan tamoyilga asoslanish lozim.

Shu sababli milliy dasturning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan "o'quv-tarbiya jarayoni sifatini jaxon standartlari darajasiga kutarish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining butunlay yangi usullarini joriy etish"ga erishishimiz zarur.

Ta'lim - tarbiya jarayonining asosiy shakli mashg'ulot bo'lib, xozirgi zamon pedagogikasi nukta nazaridan qaraganda, mashg'ulot o'quvchi va o'qituvchi faoliyatlarining uzaro muvofiqlashuvidir.

Ya'ni o'qituvchi o'z faoliyatini o'quvchilar faoliyatiga moslashtirishi, uzaro xamkorlikda faoliyat ko'rsatishi, o'quvchi ta'limning faol ishtirokchisi sifatida faoliyat ko'rsatishini ifoda etadi, ta'limiy maqsadni amalga oshiradi. Shu bois tarbiyachi fakat tushuntirishga e'tibor berib qolmay, bolalarni topshiriqlarni bajarishga ko'proq jalb etishi zarur.

Maktabgacha ta'limda nutq o'stirish mashg'ulotlarining ta'limiy maksadi bolalarda ona tilida to'g'ri, anik, ifodali so'zlash, grammatik shakllar va gapdan nutqda foydalanish orqali nutqni egallash kunikma va malakalarini shakllantirish, ularni maktab ta'limiga tayyorlashdan iboratdir.

Shuning uchun xam maktabgacha ta'limda nutq o'stirish ishlari tevarakatrof bilan tanishtirish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg'ulotlari, mexnat, sayr -ekskursiya, kuzatish jarayonlarida amalga oshiriladi. Chunki

nutq tinglovchiga karatiladi, tinglovchidan fikrni diqqat bilan tinglash, tushunish fikrga uz munosabatini bildirish talab etiladi.

Nutq o'stirish mashg'ulotlarida tarbiyachi nutq vositalaridan foydalanishi, nutq o'stirish metodlarini to'g'ri qo'llashi, bolalarning nutqni egallash ishtiyoklarini oshirishi lozim. Shu bois mashg'ulot maktabgacha ta'limda nutq o'stirishning asosiy shakli bulib, tarbiyachi va bolalarning uzaro ukuv va tarbiya faoliyatidir. Ya'ni nutq o'stirish tushuntirish, urgatish, birgalikda bajarish kabi amaliy faoliyatlar orqali amalga oshiriladi.

Mashg'ulotda tarbiyachi va bolalar ma'lum mavzu bo'yicha uzaro so'zlashish, fikrlashish, tushuntirish, kursatib berish, birga bajarish kabi uzaro xamkorlik malakalarini egallaydilar.

2. NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARI. ULARNING TURLARI, QURILISHI

Maktabgacha ta'limda nutq o'stirish mashg'ulotlarining ta'limiy maqsadi bolalarda ona tilida to'g'ri, aniq, ifodali so'zlash, grammatik shakllar va gapdan nutqda foydalanish orqali nutqni egallash kunikma va malakalarini shakllantirish, ularni maktab ta'limiga tayyorlashdan iboratdir.

Shuning uchun xam maktabgacha ta'limda nutq o'stirish ishlari tevarakatrof bilan tanishtirish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg'ulotlari, mexnat, sayr -ekskursiya, kuzatish jarayonlarida amalga oshiriladi. Chunki nutq tinglovchiga karatiladi, tinglovchidan fikrni diqqat bilan tinglash, tushunish fikrga uz munosabatini bildirish talab etiladi.

Nutq o'stirish mashg'ulotlarida tarbiyachi nutq vositalaridan foydalanishi , nutq o'stirish metodlarini to'g'ri qo'llashi, bolalarning nutqni egallash ishtiyoklarini oshirishi lozim. Shu bois mashg'ulot maktabgacha ta'limda nutq o'stirishning asosiy shakli bo'lib, tarbiyachi va bolalarning uzaro o'quv va tarbiya faoliyatidir.

Ya'ni nutq o'stirish tushuntirish, urgatish, birgalikda bajarish kabi amaliy faoliyatlar orqali amalga oshiriladi.

Mashg'ulotda tarbiyachi va bolalar ma'lum mavzu bo'yicha uzaro so'zlashish, fikrlashish, tushuntirish, kursatib berish, birga bajarish kabi

uzaro xamkorlik malakalarini egallaydilar.

Maktabgacha ta'limda mashg'ulotni tarbiyachi boshkaradi. Shuning uchun tarbiyachi ta'limning barcha boskichida bolalarning yosh xususiyatlari, faoliyat darajasi, tushunishi va bilimi, uddalay olishi, nutqiy malakasi kabilarni nazarda tutishi, topshiriqlarni bajarish usulini kursatish, bolalar bilan xamjixatlikda ishlash orqali ta'lim berishni nazarda tutishi talab etiladi.

Natijada bolalar bilimni oson, aniq tushunib oladi, idrok kiladi, ularning eshitish, kurish, amalda bajarish kabi xis-tuygulari shakllanadi, nutqiy borkamollikni egallaydilar. Shu bois tarbiyachi mashg'ulotlarda bolalarni topshiriqlarni bajarishga ko'proq jalb etishi lozim. Bu esa mashg'ulotlarda bolalar faoliyatini erkinlashtirish, faolligini oshirish, nutqni oson va kulay egallash imkonini beradi, bolalarni rivojlantirishni ta'minlaydi.

Masalan, ilk yosh guruhlarda "Qo'g'irchoqni kiyintiramiz" "Ovozidan top" "Kim qanday qichqiradi" kabi didaktik o'yin mashg'ulotlar, kichik guruhlarda "Bizning oila", "Qushlar bizning do'stimiz" "Ayiqlar mehmonga keldi", "Rasmni tasvirla" kabi, o'rta guruhda "Quvnoq tilcha haqida ertak", "O'lkamizda kuz", "O'zbekiston-mening Vatanim", "A.Navoiy, kattalar mehnati bilan tanishtirish, katta guruhda "Bizning jonli burchagimiz", "O'zbekiston-mustaqil davlat", "Ona shahrim Toshkentim", "Bizning mahalla" kabi mashg'ulotlar muhimdir.

Mashg'ulotlarda bolalar nutqning tovush tomonini-nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish, so'zda tovushning urnini aniqlash, nutq ohangi, to'xtamiga rioya qilish, so'z boyligini oshirish, yangi so'zlarni bilib olish, gap tuzish uni ifodali aytish, rasm, o'yinchoq, buyum, ko'rgan-kuzatganlari asosida so'zlab berish, savollarga to'g'ri va to'liq javob berish kabi bilimlarni egallash bilan birga nutq odobini ham o'rganadi.

Nutq o'stirish mashg'ulotlarining didaktik maqsadi bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish, nutqning tovush tomonini, grammatik tomonini shakllantirish, so'z boyligini oshirish, tasviriyl, ijodiy, hikoya tuzishga o'rgatish kabilardan iboratdir.

Nutq o'stirish mashg'ulotlari o'qib berish, hikoya qilib berish, yod oldirish, tevarak-atrof, ona Vatan, buyuk siymolar bilan, an'anaviyl bayramlar, mashhur sarkardalar, xalq ijodi, kattalar mehnati, transport, buyumlar bilan tanishtirish kabi turlarga bo'linadi.

Nutq o'stirish mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bolalar mashg'ulotlar orqali ona tilining leksik, grammatik xususiyatlarini, talaffuz meyorini, so'zlashuv nutqi talablarini, monologik nutqni amaliyl o'rganib boradilar, o'zi va o'rtoqlari nutqini kuzatish, nutqni tinglash kabi nutq odobini egallaydilar, "fikrni ona tilida mustaqil, ravon, go'zal va lo'nda ifodalash"ga o'rgana boradilar.

3. MASHG'ULOTGA QO'YILGAN TA'LIMY VA DIDAKTIK TALABLAR.

Har bir mashg'ulot bolalarning bilishi, tafakkuri, axloqiy malakalarini shakllantirishga yordam berishi lozim. Bu esa mashg'ulotga qo'yilgan didaktik va metodik talablarni puxta bilish va uni bajarishni taqozo etadi. Ular quyidagilardan iborat.

1. Mashg'ulotni tashkil etishga puxta tayyorgarlik ko'rish: mashg'ulotning mazmuni, metod va usullarini aniqlash, mashg'ulotni tashkil etishga doir vositalarni tanlash.

Mashg'ulotda bolalarning qiziqishi, bilishi, faolligini oshirishga ahamiyat berish, tarbiyachining o'z nutqi, nutqiy odobi bilan bolalarga o'rnak bo'lishi, mashg'ulotni osondan qiyinga, soddadan murakkabga tamoyilida tashkil etish.

2. Mashg'ulot jarayonida bolalar egallashi lozim bo'lgan ta'lim-tarbiya xajmi, me'yori, bolalar aqliy, jismoniy, nutqiy rivojlanishini nazarda tutgan holda ta'limning eng qulay uzluksiz shaklini tanlash, qiyoslash, solishtirish, umumlashtirish kabi usullarni qo'llashga erishish.

3. Mashg'ulotning ta'lim beruvchi, tarbiya beruvchi va rivojlantiruvchi vazifalarini birgalikda bajarish, ularning uzviyligini ta'minlash.

4. Mashg'ulotning qiziqarli bo'lishi, bolalar faoliyatining tez almashinishi, zavqli, o'zaro hamkorlik asosida bo'lishini ta'minlash.

5. Mashg'ulotning ko`rilishi, vazifalari, har bir topshiriqning aniq bajarilishini nazarda tutish.

6. Bolalarning qiziqishi, faolligini ta'minlash uchun didaktik o'yin, yo'llovchi savollar, tez va oson bajariladigan topshiriqlar berishga diqqat qilish.

7. Mashg'ulot jarayonida bolalarga yakka va jamoa tarzida ta'lim-tarbiya berish, bunda bolalar iqtidorini nazarda tutish. Bolaning xoxish-istagi, qiziqishi, xotirasi, intilishlarini xisobga olish.

8. Mashg'ulotni o'z Vaqtida boshlash, unda gigienik talablarga rioya qilish, mashg'ulotning moddiy ta'minotini (ko'rgazma, didaktik materiallar) nazarda tutish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash.

9. Guruh tarbiyalanuvchilarining mashg'ulot jarayonidagi o`quv faoliyatini kuzatish, nazorat qilish, kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini belgilash.

10. Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash, o`quv materiallarini bolalarning turli faoliyatlarida mustahkamlab borish, bolalar nutqiy barkamolligini oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A.. “O'zbekiston mustaqilikka erishish ostonasida” T.: 2011 yil
2. Karimov I.A.. “Yuksak mana'viyat engilmas kuch” T.: 2008y
3. Karimov I.A. Jaxon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T., «O'zbekiston», 2008.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. –T., «O'zbekiston», 1992 y.
5. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot – pirovard maqsadimiz. T. O'zbekiston. 2000y
6. Karimov I.A.»Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir»T.:Sharq 1997y
7. Karimov I.A.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xafsizlikka taxdid barkarorlik shartlari tarakkiyot kafolatlari T.:O'z.1997y
8. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta'lim to'g'risida. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. Sharq. 1997. 20-30 b
9. Asqarova O'.. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar masalalari. O'quv – uslubiy qo'llama. T.: “Istiqlol” nashriyoti. 2005y.
10. Munavvarov A,K. Oila pedagogikasi. T. O'qituvchi. 1994y
11. To'raeva O. «Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi» T., «O'qituvchi» 1998 y.
12. Safarov O.. Oila ma'naviyati. T.: Ma'naviyat. 2009y. 8 ta
13. Xasanboeva O.U.va boshqalar. Oila pedagogikasi.T.: 2007.
14. www.Ziyo.net
15. <http://www//uralrti/ru>.
16. WWW. TDPU.uz.

17. WWW. QDPI.uz.

WWW.nspi.uz